ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 34
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLARGA ASOSLANGAN O'QITISH METODOLOGIYASI

CHDPU Turizm fakulteti
Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi
2-bosqich talabasi
Mamirova Mashxura

МЕТОДОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ, ОСНОВАННАЯ НА ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ПОДХОДАХ

Факультет туризма ЧГПУ
Направление иностранного языка и литературы
Студентка 2-го курса
Мамирова Машхура

TEACHING METHODOLOGY BASED ON PSYCHOLINGUISTIC APPROACHES

Faculty of Tourism, ChSPU
Department of Foreign Language and Literature
2nd-year student
Mamirova Mashkhura

Annotatsiya.*Ushbu maqola psixolingvistika asosida ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlarning psixologiya sohasi bo'yicha ingliz tilini o'qitishdagi samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqot ta'limiy va qo'shimcha adabiyotlarning ahamiyati, til o'rganishga ta'sir qiluvchi psixologik omillar va innovatsion pedagogik metodlarni o'rganishga qaratilgan. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixolingvistikaga asoslangan o'qitish usullari an'anaviy yondashuvlarga qaraganda samaraliroqdir. Shuningdek, maqolada motivatsiya va talaba markazli o'qitish usullari tahlil qilinib, ularning til o'zlashtirishga ijobiy ta'siri ilmiy asoslangan holda muhokama qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется эффективность методологических подходов, разработанных на основе психолингвистики, в преподавании английского языка в области психологии. Исследование направлено на изучение значимости учебной и дополнительной литературы,*

психологических факторов, влияющих на изучение языка, и инновационных педагогических методов. Экспериментальные исследования показывают, что методы обучения, основанные на психолингвистике, более эффективны по сравнению с традиционными подходами. Также в статье анализируются мотивация и методы обучения, ориентированные на студента, и на научной основе обсуждается их положительное влияние на усвоение языка.

Annotation. *This article analyzes the effectiveness of methodological approaches developed based on psycholinguistics in teaching English in the field of psychology. The research examines the significance of educational and supplementary literature, the psychological factors influencing language learning, and innovative pedagogical methods. Experimental studies have shown that psycholinguistic methods of teaching demonstrate higher efficiency compared to traditional approaches. The paper also explores motivational and student-centered teaching methods, providing a scientifically grounded discussion of their positive impact on language acquisition.*

Kalit so‘zlar*: psixolingvistika, ingliz tilini o‘qitish, psixologiya sohasi, lingvistik kompetensiya, motivatsiya, innovatsion usullar, funksional model, interaktiv o‘qitish, til o‘rganish strategiyalari.*

Ключевые слова: *психолингвистика, преподавание английского языка, область психологии, лингвистическая компетенция, мотивация, инновационные методы, функциональная модель, интерактивное обучение, стратегии изучения языка.*

Keywords: *psycholinguistics, English language teaching, psychology field, linguistic competence, motivation, innovative methods, functional model, interactive teaching, language learning strategies.*

KIRISH

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini samarali o‘qitish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan innovatsion metodologiyalar ishlab chiqilmoqda. Ushbu tadqiqot psixolingvistik tamoyillarni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilib, psixologiya talabalariga mos keladigan eng samarali o‘qitish strategiyalarini aniqlashga qaratilgan.Psixolingvistika – bu psixologiya va lingvistika fanlarini o‘zaro bog‘lovchi fanlararo yo‘nalishdir. Psixologiya inson ongini va xulq-atvorini o‘rganar ekan, lingvistika tilni tadqiq qiladi. Shuning uchun, psixolingvistika umumiy qilib aytganda, til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi fan deb qaraladi. U til ishlab chiqarish va tushunish jarayonida ongda kechadigan kognitiv jarayonlarni o‘rganadi. Ushbu soha asosan uchta asosiy

yo‘nalishga qaratilgan: tilni ishlab chiqarish, tilni idrok qilish va tilni o‘zlashtirish. Til ishlab chiqarish – insonning nutqni yaratish va ifodalash jarayonida ishtirok etuvchi kognitiv mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Tilni idrok qilish esa eshitilgan va yozilgan matnni tushunish hamda talqin qilish jarayonlariga qaratilgan. Tilni o‘zlashtirish esa insonlarning ona tilini qanday o‘rganishi yoki ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonlarini o‘rganadi. Turli psixolingvistik nazariyalar ushbu uch jihatni tushuntirishga harakat qilgan bo‘lib, ular tilni o‘qitish metodologiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ko‘plab olimlar ushbu nazariyalarni samarali o‘qitish usullarini ishlab chiqishda asosiy tamoyillar sifatida qo‘llaganlar. Bunday uslublar hozirgi vaqtda psixolingvistik yondashuvlar deb nomlanadi. Bu yondashuv til va tafakkurni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, ammo farqli hodisalar sifatida ko‘rib chiqadi. U o‘rganishni avval individual ravishda, keyin esa ijtimoiy o‘zaro ta’sirga asoslangan kognitiv jarayon sifatida talqin qiladi.Til psixologiyasining bir bo‘limi sifatida psixolingvistika til o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi. U til o‘rganishga ta’sir qiluvchi psixologik omillarni o‘rganish orqali til o‘rgatish jarayoniga hissa qo‘shadi. Bu yondashuv til va muloqotning amaliy qo‘llanilishiga e’tibor qaratadi hamda o‘quvchilarning tushunish qobiliyatini oshirish va o‘rganish jarayonini osonlashtirish uchun tegishli o‘qitish usullarini tanlashga yordam beradi.Psixolingvistik nazariyalarga asoslangan turli o‘qitish metodologiyalari ishlab chiqilgan va ular dunyoning turli mamlakatlarida til ta’limida keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada shunday metodlardan ayrimlari batafsil muhokama qilinadi. Shuningdek, tushunmovchiliklarning oldini olish uchun psixolingvistika, til o‘rganish va o‘qitish bilan bog‘liq asosiy atamalar ham izohlanadi.Ingliz tilini o‘rganish jarayonida kognitiv jarayonlar va lingvistik tajribalar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu bog‘liqlikni psixolingvistik yondashuv orqali yaxshiroq tushunish mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilarning til o‘zlashtirishiga ta’sir qiluvchi omillarni, jumladan motivatsiya, lingvistik qobiliyat va shaxsiy o‘rganish afzalliklarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ingliz tili ta’limida psixolingvistika asosida ishlab chiqilgan ta’lim va qo‘shimcha metodlarga oid adabiyotlar tahlil qilinadi hamda ularning samaradorligi baholanadi. Bundan tashqari, motivatsiya va o‘rganish strategiyalarining amaliy jihatlari ham ko‘rib chiqiladi hamda turli o‘qitish yondashuvlarining samaradorligi ilmiy jihatdan baholanadi.

TADQIQOT USLUBLARI

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixolingvistik metodlar an’anaviy yondashuvlarga qaraganda talabalar uchun yanada samarali bo‘lib, ularning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, motivatsiya va interaktiv o‘qitish texnikalarining kombinatsiyasi talabalar tomonidan tilni o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu mavzu ayniqsa, ingliz tili

o‘qituvchilari va tilshunoslar uchun dolzarb bo‘lib, til o‘rgatish metodikasida zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhimligi kundan-kunga ortib bormoqda. Shuningdek, bu usullar psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ayniqsa samarali bo‘lib, ularning kognitiv jarayonlarini hisobga olgan holda, o‘qitish jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha eng dolzarb mavzulardan biri sifatida psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan metodologiyalarni ko‘rsatish mumkin. Bu nafaqat talabalar uchun o‘qitish samaradorligini oshiradi, balki o‘qituvchilarga ham o‘z dars jarayonlarini yanada rivojlantirish va zamonaviy talablarga moslashtirish imkonini beradi.Quyida bir nechta usullarni ko’rib chiqamiz;

Kuzatuv uslubi.O‘qituvchilar tomonidan psixolingvistik yondashuv asosida dars o‘tish jarayoni kuzatiladi va qayd etiladi. Talabalarning darsdagi ishtiroki, nutqiy faolligi va muloqot qobiliyatlari baholanadi.

Til korpusi tahlili uslubi. Talabalarning yozma va og‘zaki nutq namunalarini yig‘ib, ularning til o‘zlashtirish jarayonidagi o‘zgarishlari kuzatiladi.

Neyropsixologik tadqiqot uslubi.Eyetracking yoki EEG usullaridan foydalanish orqali talabalarning tilni o‘zlashtirish jarayonidagi miyaning faolligini o‘lchaniladi. Qolaversa,ishchi xotira va til o‘rganish jarayonlarini bog‘laydigan aqlliy testlar o‘tkazish ham maqsadga muvofiq.

Kichik guruhli tajribalar uslubi. Kichik talaba guruhlari bilan intensiv mashg‘ulotlar o‘tkazilib, qisqa muddat ichidagi o‘zgarishlar va yondashuvlar samarasi o‘rganiladi. Har bir guruhga turli psixolingvistik strategiyalar qo‘llaniladi (masalan: vizual yordamlar, mnemonik usullar, kontekstual o‘rganish).

Vaqt oralig‘idagi taqqoslash uslubi. Turli kursdagi yoki yoshdagi talabalar guruhi o‘rtasida psixolingvistik metodlar qabul qilinishi va samarasi taqqoslanadi. Masalan, birinchi kurs talabasi va to‘rtinchi kurs talabasining o‘zlashtirishidagi farqlar taqqoslanib o’rganiladi.

Aralash metod uslubi. Sifat va miqdoriy usullar birgalikda qo‘llaniladi. Masalan, eksperimental natijalar statistik tahlil qilinadi, so‘rovnomalar esa sifatli izohlanadi

. **NATIJALAR**

Psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan o‘qitish metodologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bunday metodlar talabalar til o‘zlashtirish jarayonida ijobiy natijalar bergan. Xususan, o‘quvchilarning so‘z boyligi, talaffuzi, grammatik ko‘nikmalari va muloqotga kirishish qobiliyati an’anaviy usullarga qaraganda sezilarli darajada rivojlangan. Dars jarayonida interaktiv yondashuvlar, kontekstual topshiriqlar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashqlar

qo‘llanilganda talabalar faolroq ishtirok etgan, darsga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya oshgan. Psixologik jihatlar e’tiborga olinganida, talabalar o‘zini erkin his qilgan, xatodan qo‘rqmasdan fikr bildirgan va o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshgan. Umuman olganda, psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan o‘qitish metodlari ingliz tilini o‘rgatishda yuqori natijalar bergani, ularni amaliyotga keng joriy qilish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan o‘qitish metodologiyasi o‘quv jarayonini insonning psixologik va lingvistik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishga qaratilgan. Bu yondashuvda til o‘rganish, til va fikrning o‘zaro aloqasi, shuningdek, o‘rganish jarayonida psixologik omillarning ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalari va psixologik holatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning samarali o‘rganishi uchun o‘ziga xos metodologiyalar kerak.Birinchidan, psixolingvistik yondashuvlar o‘qitishda aktiv o‘rganishni rag‘batlantiradi. O‘quvchilarga tilni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan o‘rganish imkonini beradi, bu esa ularning o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi. Ikkinchidan, til o‘rganishda sinergiya yaratish zaruriyati mavjud. Psixolingvistik metodologiya o‘quvchining tashqi va ichki motivatsiyasini uyg‘otib, tilni o‘rganishga qiziqishini oshiradi.Tadqiqotlar shuni ham ta'kidlaydiki, psixolingvistik yondashuv o‘qitishda individual yondoshuvni taqdim etadi. Har bir o‘quvchining psixologik holati, uning o‘rganishga bo‘lgan yondoshuvi va xususiyatlari hisobga olinadi, bu esa o‘qituvchining o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish uchun interaktiv va innovatsion metodlar, masalan, rol o‘ynash, simulyatsiya va guruhli ishlash kabi usullar qo‘llaniladi.Yana bir muhim nuqta, psixolingvistik yondashuv til o‘rganish jarayonini ko‘proq ongsiz ravishda amalga oshirishga imkon beradi. Tabiiy tilni o‘rganishdagi tilga bo‘lgan instinktiv yondashuv psixolingvistik metodologiyaning asosiy jihatlaridan biri sifatida ko‘riladi, bu esa tilning ichki tuzilishini va unutilgan qoidalarni tezda o‘zlashtirishga yordam beradi.Shunday qilib, psixolingvistik yondashuvlar til o‘rganishda samaradorlikni oshiradi va o‘quvchilarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari asosida individual yondoshuvlarni yaratishga imkon beradi. Bu metodologiya til o‘rgatishdagi an'anaviy usullarni takomillashtirishga yordam beradi.

MUHOKAMA

Psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan o‘qitish metodologiyasi, til o‘rganish jarayonini yaxshilashga qaratilgan yangicha yondashuvni taklif etadi. Bu yondashuvning muhimligi shundaki, u til o‘rganishda faqat grammatika va lug‘atni o‘rganishdan tashqari, talabaning psixologik, kognitiv va emotsional holatlarini hisobga olishga qaratilgan. Til o‘rganishda faqat texnik jihatlar emas, balki

o‘quvchining ongli va noaniq fikr jarayonlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun psixolingvistik metodologiya o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini tushunish va samarali ta'lim berish imkonini beradi.Psixolingvistik yondashuvlar, o‘quvchilarning o‘ziga xos psixologik va kognitiv xususiyatlarini inobatga olgan holda, individual yondashuvni taklif etadi. Bu metodologiya har bir o‘quvchining o‘rganish jarayonini alohida o‘rganishni, ularning o‘rganish usullarini va xususiyatlarini moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu yondashuv til o‘rganish jarayonini tabiiy va amaliyotga asoslaydi. O‘quvchilar, tilni faqat nazariy qoidalar orqali emas, balki real hayotda, suhbatda va amaliy ishlarda o‘rganadilar. Bu jarayonni interaktiv qilish, talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi va ularning tilni samarali o‘rganishiga yordam beradi.Bundan tashqari, psixolingvistik metodologiya ko‘pkanallik o‘rganishni taqdim etadi, ya'ni o‘qitishda bir nechta sezgilarni bir vaqtning o‘zida ishlatish zarurligini ta'kidlaydi. Bu, o‘quvchining tilni o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va samarali qiladi. Misol uchun, o‘quvchi nafaqat tinglash, balki ko‘rish, yozish va gapirish orqali ham tilni o‘rganadi. Shu tarzda, til o‘rganish jarayoni ko‘plab miyaning faoliyatini o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchining tilni chuqurroq o‘zlashtirishiga imkon yaratadi.Biroq, psixolingvistik yondashuvlarni til o‘qitishda qo‘llashda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud. Birinchidan, o‘qituvchilar uchun psixolingvistik metodologiyaning to‘liq tatbiqi, talabalar bilan yaqindan ishlashni va ularning psixologik holatlarini tushunishni talab qiladi. Bu, ba'zan o‘qituvchilardan ko‘proq vaqt va kuch sarflashni talab qiladi. Ikkinchidan, psixolingvistik metodlar, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishga yo‘naltirilganligi sababli, keng jamoat uchun moslashtirilgan metodlarni ishlab chiqish qiyin bo‘lishi mumkin. Shuningdek, metodologiyaning samarali ishlashi uchun o‘qituvchining yuqori malakasi, psixologiya va til o‘qitishning o‘zaro aloqasini yaxshi tushunishi zarur.Psixolingvistik yondashuvlarning til o‘qitishda qo‘llanilishi, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning psixologik holatlari va emotsional ehtiyojlarini inobatga olish, ularni yanada faolroq o‘rganishga undaydi. Motivatsiya o‘rganish jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Psixolingvistik yondashuvlar yordamida o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqi oshadi, bu esa ularning o‘rganishdagi muvaffaqiyatini yanada kuchaytiradi.Shuningdek,psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan o‘qitish metodologiyasi til o‘rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu yondashuvlar nafaqat tilni o‘rganish jarayonini tabiiy va interaktiv qilish, balki o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini ham hisobga oladi. O‘quvchilarning psixologik, emotsional va kognitiv holatlarini tushunish orqali, ularning o‘rganish jarayonini optimallashtirish mumkin.

Biroq, psixolingvistik metodologiyaning samarali tatbiqi uchun o‘qituvchining malakasi, individual yondashuvlarni qo‘llashda tajriba va talabalarni tushunish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhimdir**.**

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan o‘qitish metodologiyasi til o‘rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv, til o‘rganishning faqat nazariy qoidalariga emas, balki talabaning psixologik va kognitiv xususiyatlariga ham e'tibor qaratadi. Psixolingvistik metodologiya o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda, tilni tabiiy va interaktiv tarzda o‘rgatishni ta'minlaydi. Ko‘pkanallik o‘rganish, ya'ni bir nechta sezgilarni bir vaqtning o‘zida ishlatish, o‘quvchilarning tilni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.Psixolingvistik yondashuvlarning til o‘qitishda qo‘llanilishi, nafaqat o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga, balki ularning tilni amaliyotda samarali o‘rganishiga imkon yaratadi. Shuningdek, o‘qituvchining malakasi, psixologiya va til o‘qitish metodlarini yaxshi tushunishi, metodologiyaning samarali tatbiq qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, psixolingvistik yondashuvlarni qo‘llashda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud bo‘lib, o‘qituvchilar uchun ko‘proq vaqt va kuch sarflashni talab qiladi.Umuman olganda, psixolingvistik yondashuvlar til o‘rganish jarayonini yanada samarali va muvaffaqiyatli qilishga yordam beradi. Bu metodologiyalar, o‘quvchilarning psixologik, emotsional va kognitiv holatlarini inobatga olib, ularning til o‘rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi. O‘qituvchilar ushbu yondashuvlarni samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarga yaxshiroq ta'lim bera olishadi va ularning o‘rganish jarayonini optimallashtiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Scovel, T. Psixolingvistika. Oxford University Press, 1998. 29-187-betlar.
2. Aitchison, J. The Articulate Mammal: Psixolingvistikaga Kirish. Routledge, 2008. 100-209-betlar.
3. Carroll, D. W. Til Psixologiyasi. Cengage Learning, 2014.
4. Chomsky, N. Sintaksis Nazariyasining Asoslari. MIT Press, 1965.
5. Vygotsky, L. S. Jamiyatdagi Aql: Yuqori Psixologik Jarayonlarning Rivojlanishi. Harvard University Press, 1978.
6. Hazratqulova E. I. Xorijiy Tillarni Onlayn Tarzda O‘qitishda Xalqaro Baholash Dasturlari va Standartlari. Academic Research in Educational Sciences, 2 (CSPI konferensiya 2), 2021. 613-616-betlar.